



Uzbekiston Respublikasi maktabgacha
va maktab ta'limi vazirligi

hokimligi

maktabgacha va maktab ta'limi

qarmasi

maktabgacha va
maktab ta'limi tasarrufidagi

maktabgacha ta'lim tashkiloti

o'rta guruh o'qish

ning
takomillashtirilgan "P" ning
davlat o'quv dasturi uchun tashkili

asosida

"Bahorgi o'zgarishlar"
mavzusida tashkillangan

**FAOLIYAT
ISHLANMASI**

Mart oyining 2-haftasi

veb-saytimiz: Zokirjon.com
Zokirjon.com veb-sayti orqali o'zingiz uchun
kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.

Zokirjon Admin bilan


**91-328-88-38 nomerga telegram orqali
bog'lanishingiz yoki telegramdan @jek567
izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.
Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida
javob beriladi.**

**O'rta guruhlariga mart oyi 2-hafta faoliyat
ishlanmani to'liq holda olish uchun telegramdan
yozing.**



Telegram kanalimiz:
@maktabgacha_tt

**To'lov uchun: HUMO 9860230104973329
Plastik egasi Nabiyev Zokirjon**



DIQQAT!!!

Bu hujjatni hech kimga tarqatmaslik
sharti bilan olishingiz mumkin.
Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin
insoningizga ham.
Internet veb-saytlarga joylamang.
Telegram orqali kanal va gruppalariga
tarqatmang.

**OMONATGA HIYONAT
QILMANG.**

Guruh: O'rta guruhlar uchun

Oy mavzusi: Bahor–mehr, tabiat va qadriyatlar fasli.

Hafta mavzusi: Bahorgi o'zgarishlar.

Ta'limiy faoliyat maqsadlari

Ta'limiy: tarbiyalanuvchilarning bahor fasli haqidagi bilimlarini mustahkamlash, ularga bahorning o'ziga xosligi haqida tushuncha berish;

Rivojlantiruvchi: bolalarning so'z boyligini oshirish, ularda tasavvur qilish qobiliyatini rivojlantirish;

Emosional: tarbiyalanuvchilarda o'zaro hamdardlik tuyg'ularini rivojlantirish.

Kerakli materiallar: bahorga oid suratlar.

Ta'limiy faoliyatning mazmuni

Tarbiyachi: - Assalomu alaykum, mening quvnoq bolajonlarim. Bugungi ta'limiy faoliyatimizda bahor fasli haqida suhbatlashamiz. Fasllar kelinchagi deb e'zozlanadigan ushbu faslning boshlanish davri hisoblanadi.

Bahor kelishi bilan dalalada qizg'in boshlanib ketadi. Bobo dehqonlarimiz yerga sara urug' qadriyatini qo'shgan tushishsa, bog'bonlarimiz daraxtlarga shakl berib, yangi meva hosil bo'lishiga tayyorgarlikni boshlab yuborishadi. Butun tabiat uyg'onadigan bu faslning boshlanishi muborak bo'lsin.

Bolalar: - Rahmat.



Tarbiyachi: - Bolalar, bahorning tarovati, uning go‘zalligi haqida juda ko‘p shoirlarimiz she‘rlar yozishgan, bahordan zavqlanib qo‘shiqlar aytishgan. Hozir sizlarga shoir Iqbol Mirzoning “Ko‘klamoyim” she‘rini o‘qib beraman.

Ko‘klamoyim

Iqbol Mirzo

Ko‘klamoyim sep yoydi.

Tabiatni yoydi.

O‘rmonni Baxmal dasturxon bugun. Yaxshilar mehmon bugun.

Qiqir-qiqir...

Qir-adirdan sirg‘alib sirg‘alar. Bulbul g‘azalxon bugun. Ko‘ngil farovon bugun. Yig‘ib yig‘ib ch bu. Bir g‘aroyib ishonch bu, Yaratish zavqi ezgu Hammamiz dehqon bugun. Charchagan g‘bon bugun.



Kecha kunduz teng bo‘ldi. Olam bag‘ri keng bo‘ldi. Bir yoqa-yu yeng bo‘ldi Do‘stlar qadrdon bugun, Oynang bearmon bugun.

Qaldirg‘ochim, xush ko‘rdik, Sog‘inganda tush ko‘rdik. Samoda baxtqush ko‘rdik. Turnalar karvon bugun.

Quyoshjon sarbon bugun.

Ko'klamoyim, bo'yindingan. Aylanoyin to'yindingan.

Oq gul sochib qo'yindingan. Olam guliston bugun. Olam guliston bugun!

Tarbiyachi: - Bolajonlar, hozir sizlar bilan badantarbiya daqiqasi o'tkazamiz. Tasavvur qiling siz qaldirg'ochsiz, uning xatti-harakatlarini menga qarab bazarasizlar.



Ko'kda qanotin qoqqan.

Qaldirg'ochim, qaldirg'och. Bahor elchisi bo'yib borgan,

Qaldirg'ochim, qaldirg'och.

Osmonlarda sayragan,

Qaldirg'ochim, qaldirg'och.

Yaxshilikni tilagan,

Qaldirg'ochim, qaldirg'och.

Tarbiyachi: - Bolalar, endi monitordagi tasvirlarga qarab ketish ketilish tuzing. Bu gaplarimiz kichik bir hikoyaga o'xshashi kerak.

(Monitorda bahor tasviri ko'rsatiladi.)

1-bola: - Olkamizga bahor fasli kirib keldi.

2-bola: - Bu faslda tog'larda qorlar eriydi.

3-bola: - Bahor elchisi boychechak va binafshalar o'sib chiqadi.

4-bola: - Lolaqizg'aldoqlar ochiladi.

5-bola: - Bu faslda onajonlarimizning bayrami va Navro'z bayrami nishonla- nadi.

6-bola: - Bahorda dehqonlar urug'lar ekadilar.

7-bola: - Bog'bonlar esa bu faslda daraxt va gullarni ekadilar.


8-bola: - Bu uyg'onish fasli bo'lgani uchun mahallalarda ham hasharlar o'tkaziladi, hovli-ko'chalarga mevali daraxtlar, gullar ekiladi.

9-bola: - Bahorda kun isigani uchun ko'chada o'yinlar o'ynaymiz. Varraklar uchiramiz.

10-bola: - Biz esa sumalak, halim kabi taomlarni tayyorlashadi.

11-bola: - Bu bizga yoqadigan fasllardan biri.

Tarbiyachi: - Barakalla, bolalar, endi bu topishmoqlarga javob bering- lar-chi.



Siylab-siylab daraxtlarga

Guldan marjon taqib kelar.

Bu qaysi fasl? (Bahor)

Sharqdan bosh ko'tarar u, Har tong sog'inar bizni.

1 Ko'rmasak turolmaymiz, Olov yuzli qirmizli. (Quyosh)

Qozonda emas, qaynaydi,

Qishin yozin tinmaydi. (Buloq)

Tarbiyachi: - Barakalla, bolajonlar, bugungi faol ishtirokingiz uchun sizlarga katta rahmat.

Qurish, yasash va matematika markazi

Yasash: «Shahrimning ko‘priklari»

Maqsad: bolalar sxema, suratlar, o‘z tasavvurlari asosida quradilar, shakli va hajmiga ko‘ra turlicha shakllarni nomlaydilar, tartib bilan sanaydilar.

Kerakli jihoz va materiallar: kubik, geometrik shakl, taxta va plastmassa konstruktordan modul, rasm va fotosuratlar.

Faoliyatning borishi:

1. Ko‘priklar tasvirlangan rasmlar va fotosuratlarni ko‘zdan kechirish.
2. Bolalar tomonidan ko‘priklarni qurishni rejalashtirish.
3. «Hajmiga ko‘ra tanla» ta’limiy o‘yini.
4. Kostruktorlar bilan o‘yin.
5. Bolalarning ijodini muhokama etish, ularning ijodini ko‘llab-quvvatlash.

Qo‘shimcha: bolalar o‘zlaridan foydalanish.

E’tiborga ega bo‘lish kerak: bolalarning tasavvurni rivojlantirish, majburiyatlarni taqsimlash ko‘nikmasi, jamoaviy jarayonni tashkil qilish.

Syujetli-rolli o‘yin va o‘yin qurilish markazi

«Supermarket»

Maqsad: bolalar o‘zlarining turli belgilariga ko‘ra predmetlarni tasniflay oladilar, sotuvchi va xaridor o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni, ularning xatti-harakatlarini tushunadilar.

Kerakli jihoz va materiallar: mahsulotlarni aks yettiruvchi o‘yinchoqlar, peshtaxta, pulning o‘rnini bosuvchi qog‘ozdan yasalgan pullar, kassa.

Faoliyatning borishi:

1. Turli mahsulotlarni (o‘yinchoqlar) peshtaxtaga joylashtirish (do‘kon bo‘limlari: sabzavot, meva, kontselyariya mollari, kiyimlar).
2. Rollarni mustaqil taqsimlash (sotuvchi va xaridor).
3. Xaridorlarning supermarketga tashriflari: tovarni tanlash, kassada to‘lovni amalga oshirish.

E’tiborga molik jihati: to‘g‘ri nutqni shakllantirish, bolalar o‘rtasida do‘stona



munosabatlar.

Til va nutq markazi

«Bahor» she'ri yod olish

Maqsad: bolalar she'rni ifodali ayta oladilar, matnda berilgan bahor faslig'a xos belgilarni biladilar, «3» tovushini to'g'ri talaffuz qiladilar, nomida «3» tovushi bo'lgan predmetlarni rasmlar orasidan topa oladilar.

Kerakli jihoz va materiallar: predmetli rasmlar, bahor yomg'iri tasvirlangan rasm. «Bu nimaning tovushi?» ta'limiy o'yini.

Faoliyatning borishi:

1. «Quvnoq» she'ri yod olish.
2. Kartochka bilan o'yin.
3. Rasmni namoyish etish.
4. Bolalarga savol berish.
5. She'rni yod olish.
6. Bolalar tomonidan she'rni ifodali o'qish.

Qo'shimcha: nafas mashqlari, tez aytishlar aytish.

E'tiborga molik jihati:

tovushning to'g'ri artikulyatsiyasi, diktsiya, intonatsiyasini rivojlantirish.

Fan va tabiat markazi

Mato turlari

Maqsad: bolalar matoning turlari bilan tanishadilar, matolarga xos sifatlarni ajrata oladilar, kiyimlariga ehtiyotkorona munosabatda bo'ladilar, uni iflos qilmaydilar, chiroyli taxlaydilar.

Kerakli jihoz va materiallar: turli mato qiyqimlari, suvli tog'ora, qog'ozdan yasalgan chiziqlar, «Atele» o'yiniga doyr atributlar.

Faoliyatning borishi:

1. Mato turlarini ko'rib chiqish.
2. Matolarni qo'l bilan ushlab ko'rish va his qilish orqali matoni aniqlash.



3. Matolarning turlari haqida egallagan bilimlarni tenqurlari bilan o‘rtoqlashish.

4. «Atele» ta’limiy o‘yini.

Qo‘shimcha: moda jurnallari, mato namunalari bo‘lgan albomlarni ko‘zdan kechirish.

E’tiborga molik jihati: bog‘lanishli nutqni rivojlantirish. Nutqiy muloqot madaniyatini shakllantirish.

San’at markazi

Loy ishi: «Gullar»

Maqsad: bolalar loydan (plastilindan) gul yaproqlarini yasay oladilar, uni karton ustiga yupqa qilib yurgiza oladilar, gullarni stek yordamida chizadilar, rasmga mos tarzda loyni surtadilar.

Kerakli jihoz va materiallar: 10x15 sm. hajmdagi kartonli asos, loy, stek, tayyor mahsulotlar.

Faoliyatni

1. Gul turlari bilan tanishtirish.
2. Uy va dala gullari haqida suhbat.
3. Gul yaproqlari va gullari chizish.
4. «Davom yettir» ta’limiy o‘yini.
5. Ishlarning ko‘rgazmasi.

Qo‘shimcha: loydan qilingan gulni mavjud bo‘lgan albomga ko‘zdan kechirish.

E’tiborga molik jihati: sarishtaliqni rivojlantirish, ijodkorlik.

